Ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirishda lisoniy va nolisoniy ta’sir ko‘rsatish va ularning nutq sifatini oshirishdagi roli

Javlanbek Matnazarov
UrDU o‘qituvchisi, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ollayorova Barno
UrDU magistranti

Muloqot madaniyati va muloqotchanlik turli vaziyatlarda muammolarni oson hal qilishning eng yaxshi yo‘lidir. O‘zaro ta’sir uchun tanlangan noto‘g‘ri pedagogik hatti-harakat yoki noto‘g‘ri muloqot shaklini qo‘llanilishi, ya’ni muloqotga uni amalga os vaziyathirish nuqtayi nazardan tayyorlanmaganlik, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Muloqotda bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi nutq samaradorligini oshiruvchi zaruriy vositalarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz: ulardan birinchisi ekstrolingvistik vositalar – muloqotga ko‘nikish mushaklarining safarbarligi, tashabbuskorlik, rollar pozitsiyasidan ongli foydalanish, imo-ishora, har bir fikrni oldingisiga nisbatan balandroq tovush bilan boshlash, muloqotning ko‘p qatlamligini e’tiborga olish. Bular umumiy supersigment birliklar nomi bilan atalishi mumkin.

Muloqotga moslashish atamasini dastlab K.S.Stanislavskiy tomonidan birinchi bo‘lib qo‘llangan, u hal etilayotgan vaziyat, muammo va ta’limiy xususiyatiga adaptatsiyalashgan yuz ifodasi va gavda ifodasi, ruhiy, nutqiy va harakat usullari sistemasini tanlab muloqotga tarkishish tashkil etishni birdiradi. Insoniy muloqatning har bu jarayonga moslashish ish samarasini oshiradi. Professional muloqotda vaziatga moslashish o‘zaro ijobiy ta’sir etish samarasini oshiradi.

M.O.Knebil adabtatsiyani “Kishilar muloqotining ichki va tashqi shakli” tarzida tasvirlaydi. Biroq bu fikrga mutlaqo qo‘shilish qiyin. Negaki nutqning o‘zida ham ichki va tashqi tomon mavjudligini unutmaslik lozim. Bunda u bir-biriga qo‘llaydigan ruhiy yurishlarni bir kishining ikkinchisiga ta’sir etish tanlanuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini nazarda tutadi. Bu bilan ko‘rinadiki ruhiy holatning ham ijobiy yoki salbiy tomoni sifatga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. A.S.Makarenko “Yonimga kel!” da’vatini 15-20 ohangda aytishga o‘rganganida, va yuz ifodasini, gavda harakati va tovushini 20 dan ortiq, holatga solishga muvaffaq bo‘lganidagina o‘zini haqiqiy mahoratimni seza boshlaganligini aytadi. Demak, biz o‘rganayotgan bu jarayon juda ko‘p tomon-qirralarga ega ekanini unutmaslik kerak. Muloqotdagi moslashuv pedagogik tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki pedagogik vaziyatlar odatda juda tez rivojlanadi va butun pedagogik jarayon harakatlanuvchi kommunikativ sistema sifatida gavdalanadi. Uni samarali boshqarish o‘qituvchi tomonidan muloqot uchun ketma-ket moslashuvlarni o‘zlashtira olinishiga bog‘liqdir.

Yosh o‘qituvchi o‘zida har bir yangi pedagogik vaziyatga kommunikativ moslashuvlar tizimini juda tez kirita olish malakalarini shakllantirishi zarur. Ta’sir ko‘rsatishning har bir metodi muloqatga moslashish sistemasi bilan birgalikda o‘zgacha ohang, ahamiyat, kuch va yo‘nalish kasb etadi.

Asablar safarbarligi har qanday ma’ruza qilishning zaruriy shaklidar. U diqqatning bir maqsadga qaratilgani va demak, nigoh yo‘nalishi, ko‘z qarashlari, nafas olish va umuman asabning umumiy safarbarligi va aynan ruhiy nutqiy tayyorligidir. Aslida ruhiy tayyorgarlik nutqiy tayyorlik bilan barobar ishlasagina natija ijobiy bo‘ladi.

Nutqni ta’sir ko‘rsatishi bolalarda aks etadigan umumiy kommunikativ holat bilan mustahkam bog‘liq. Bu degani o‘zlashtiruvchining darajasi va bilim sifati ma’lumotni qabul qilishga bevosita mas’uldir. Ruhiy safarbarlik nutqliy ta’sir etishidan ilgariroq vujudga keltirish ma’quldir. Ma’ruzachi, avvalo, turishi va jim turishi bilan ham nimalarga tayyor ekanini ko‘rsata olishi kerak. Shundagina muloqotga bolalarda ham ichki safarbarlik yaratiladi, va uning odatdagi

asoslari yanada mustahkamlanadi. Bu o‘rinda notiqlar uchun quyidagi tavsiyanomani o‘qituvchilar uchun ham tegishli ekanligini eslash o‘rinlidir: minbar tomon borayotgan notiq hozir hammaning diqqati unga qaratilishini sezadi. Shuning uchun ham, u tashqi ko‘rinishi bilan, o‘zining harakatchanligi, tinglovchilarga muhimroq axborotni aytishga tayyorligi va bunga xohishi borligini ham namoyish qilishga intiladi. Notiqning yurishida xijolat tortishi, jur’atsizligi yoki befarqligining sezilishi juda yomondir. Bu muloqatga tayyorgarlik ko‘rishining umumiy “tashqi” manzarasi bo‘lib, u tinglovchilarga moyillikni vujudga keltirishning eng zarur sozlovchisidir.

Pedagogik sistemada – tashabbuskorlik pedagogning eng muhim kommunikativ vazifasi tarzida voqe bo‘ladi. Tabiiyki, tashabbusni qo‘llash shakllari har xil bo‘ladi. Ular hozirgi faoliyatdagi emotsiyalar va bilim jarayonida yaratiladi va pedagogik vaziyatlarni o‘zgarib turishi natijasida o‘zgarib boradi.

Pedagog nutqining ta’siri ikki ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: a) pedagog oshkora boshqaruvchi muloqat shaklini tanlaydi; b) Muloqotda, nutqida bolalarga tashabbusni bildirmay yuklab turadi, biroq nazoratni ushlab turadi.

Muloqotda bir tomondan tashabbusni qo‘ldan bermaslik ikkinchi tomondan esa muloqotdagi moslashishlar sistemasi orqali bu tashabbuskorlikni boshqarish, unga zarur kommunikativ vaziyat shaklini berish zarur. Xuddi shu ma’noda avtoritar tashabbus bolalar tashabbusini yaratuvchi demokratik yashirin avtoritarlik deb fikr yuritish mumkin. Ilmiy ma’lumotlarni bolalarga yetkazish jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, ularga hikoya usulidagi tushuntirish shaklini berish kerak. Boshlang‘ich singflarda, avvalo, o‘quvchilarni bola sifatida ko‘rish kerak. Lozim bo‘lganda jumboq usulidan foydalanish, ilmiy ma’lumotni faktlar, misollar ortiga “qamash” usulidan foydalanish ajoyib natija berishi mumkin.

Xullas nutq jarayonini ruhiy qayta ishlash va unga ruhiy jarayon sifatida qarash darslar sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mukin. Baribir ham dars jarayonining sifati o‘qituvchining nutqi va mahoratiga bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammedova S. Nutq madaniyati. T: 2004. 109 b.
2. Hamroyev M, Muhamedova D. Shodmonqulova D. G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh. Ona tili (darslik), T: Moliya-iqtisod, 2007. 276 b.
3. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T: 2002. 306 b.

WORLDLY KNOWLEDGE